



THE PLACE OF YASSAVI'S SCHOLARLY LEGACY IN THE HISTORY OF RESEARCH

Shavkat Adirasulovich Khamzayev

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Associate Professor at Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khoja Ahmad Yassavi, scholarly heritage, Sufism, research history, Divan-i Hikmat, spiritual and educational legacy, Yassavi studies, Turkic literature, philosophy, spirituality.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article analyzes the scholarly heritage of Khoja Ahmad Yassavi and the process of its study across different periods. The examination of Yassavi's teachings based on primary sources, as well as scientific research on his Sufi ideas, spiritual and educational views, and literary style, are covered in chronological stages. Additionally, in studying Yassavi's legacy, an overview of scientific works conducted by Eastern and Western scholars, particularly researchers from the Soviet and independence periods, is provided. This analysis demonstrates that Yassavi's legacy holds great significance not only in religious and moral terms, but also in philosophical and literary aspects.

YASSAVIY ILMIY MEROSINING TADQIQOTLAR TARIXIDAGI O'RNI

Shavkat Abdirasulovich Xamzayev

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

E-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, ilmiy meros, tasavvuf, tadqiqotlar tarixi, Devoni hikmat, ma'naviy-ma'rifiy meros, Yassaviyshunoslik, turkiy adabiyot, falsafa, ma'naviyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning ilmiy merosi va uning turli davrlarda o'r ganilish jarayoni tahlil etiladi. Yassaviy ta'lilotining ilk manbalar asosida tadqiq etilishi, qolaversa, uning tasavvufiy g'oyalari, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari va adabiy uslubi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar bosqichma-bosqich

yoritib berilgan. Shuningdek, Yassaviy merosini o‘rganishda sharq va g‘arb olimlari, xususan, sovet va mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarga nazar tashlanadi. Ushbu tahlil Yassaviy merosining na faqat diniy va axloqiy, balki falsafiy va adabiy jihatdan ham ulkan ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

МЕСТО НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ЯССАВИ В ИСТОРИИ ИССЛЕДОВАНИЙ

Шавкат Абдирасулович Хамзаев

доктор философии (PhD) по философским наукам

доцент Самаркандского государственного института иностранных языков,

E-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ходжа Ахмад Яссави, научное наследие, суфизм, история исследований, Диван-и Хикмат, духовно-просветительское наследие, яссавиведение, тюркская литература, философия, духовность.

Аннотация: В данной статье анализируется научное наследие Ходжи Ахмада Яссави и процесс его изучения в различные периоды. Рассмотрение учения Яссави на основе первоисточников, а также научные исследования его суфийских идей, духовно-просветительских взглядов и литературного стиля представлены в хронологической последовательности. Кроме того, при изучении наследия Яссави дается обзор научных работ, проведенных восточными и западными учеными, в частности, исследователями советского периода и периода независимости. Этот анализ демонстрирует, что наследие Яссави имеет большое значение не только в религиозном и нравственном плане, но и в философском и литературном аспектах.

Kirish

Mamlakatimizda buyuk alloma va mutafakkirlar ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish va ommalashtirish, barkamol avlodni voyaga yetkazishda ajdodlarimizning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. «Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz»[1;263]. Bu borada, ajdodlarimiz tasavvufiy, ma’naviy merosidagi ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, bu borada Ahmad Yassaviyning tasavvufiy merosidagi diniy-irfoniy, badiiy-axloqiy, aksiologik

qarashlarini ilmiy-falsafiy tahlil etish, o'rganish va undan komil inson tarbiyasida amaliy foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Xoja Ahmad Yassaviy islam olamidagi ko'plab mutasavvuflarning piri va shayxi hisoblanadi. U nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun turkiy-islam dunyosida tasavvuf ta'limotining keng tarqalishi va shakllanishida beqiyos ta'sir ko'rsatgan zotdir. Uning hayoti va faoliyati, xususan, «Devoni hikmat» asari orqali yosh avlodni axloqiy tarbiyaga, ruhiy komillikka, zohir va botin olamini tozalashga da'vat etuvchi g'oyalari ko'plab so'fiy rahnamo va orfiy maktablarga ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Yassaviy o'z shogirdlari orqali turkiy xalqlar o'rtasida tasavvufiy dunyoqarashning shakllanishiga, uning xalq ongida singib ketishiga yo'l ochgan. Shu bois u «Pir i Turkiston», «Shayxul mashoyix» degan unvonlar bilan e'zozlangan va uning ta'limoti keyingi avlodlar so'fiylari — Boborohim Mashrab, So'fi Olloyor, Naqshbandiya va Kubraviya tarikatlari ulamolariga katta ta'sir o'tkazgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Xoja Ahmad Yassaviy ilmiy merosining o'rganilish tarixidagi o'rnini har tomonlama yoritish, uning turli davrlarda qanday talqin etilganini aniqlash, shuningdek, bu talqinlarda mavjud ilmiy yondashuvlar, g'oyaviy qarashlar va metodologik asoslarni olib berish maqsad qilib olindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning sistemali va kompleks yondashuv, komparativ-taqqoslama usuli, tarixiylik va mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Xoja Ahmad Yassaviy islam olamidagi ko'plab mutasavvuflarning piri va shayxi hisoblanadi. Buni “Yassaviya tariqati silsilasi” izdoshlarining ko'pligidan ham bilib olish mumkin. Chunki, yassaviylik tariqati silsilasining o'zida xalqimizni umuminsoniy, etnik qadriyatlar ruhida tarbiya qilib kelgan shayxul-mashoyixlardan ellik izdoshining nomi tartib bilan keltirilgan. Tadqiqotchi O.Usmonov Movarounnahrda XIV-XV asrlardan so'ng paydo bo'lgan “bektoshiya” va yana bir necha kichik tariqatlarni ham “yassaviya” dan tarqalgan, deb hisoblaydiki, ammo bu nazariyani yangi manbalar asosida isbotlash talab etiladi. Chunki, birinchidan, yassaviya va bektoshiyani o'xshash tomonlari bo'lsada, ularning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Shuning uchun tadqiqotchining yuqorida fikriga qo'shilish ilmiy isbot talab qiladi.

O'rta asr Markaziy Osiyo tariqatlarini qiyosiy tahlil qilsak, Yassaviya ta'limotida zikrning zikri jahr (ovozi chiqarib yoki aloniya), Naqshbandiya tariqatida esa zikri xufiya (ovozi chiqarmay) Allohga ibodat qilingan. Har ikki tariqatning usuli va odobi ham mustaqil bo'lib, Yassaviylik “Fakrnama”si asosan nazmda va nasrda bitilgan, Naqshbandiylik Abduholiq G'ijduvoniyning “Nasihatnama” si va “Maqomoti shoh Naqshband”ga asosan nasrda bayon etilgan. Aslida XIV asrda naqshbandiylik tariqati Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotining shakllanish jarayoni oqibatida

ro'y bergan. Naqshbandiya tariqatidagi o'n bitta qudsiy so'zlarining sakkiztasi Abduholiq G'ijduvoniya mansub, Maxdumi A'zamning "Risolayi ilmiya" asarida "Dil ba yoru dast ba kor" kalimasini Xoja Ahmad Yassaviy ilk bor turkiyda aytgan deyishi masalaga butunlay boshqacha ilmiy, mantiqiy yondashishni talab qiladi. "Bektoshiya" tariqatiga etibor qaratsak, uning Movarounnahrga daxldor ekanligi, naqshbandiya tariqati janubiy Turkistonda sarbadorlar, hurufiylar va boshqalarda bo'lganidek, shiya mazhabining ta'siri kuchli ekanligi bilan izohlanadi. Sobiy Ittifoq davridagi ba'zi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yassaviylik tariqatiga bo'lgan qiziqish o'rta asrlarning keyingi davrida susayib borganligi qayd qilinadi.

Ta'kidlash kerakki, Amir Temur davrida Yassaviylik rivojlangan bo'lsada, uning ajdodlari davriga kelib, ya'ni Temuriylar davrida qisman susaydi, Muhammad Shayboniyxon davridan boshlab, Movarounnahrda keng yoyila boshladi. Ubaydullaxon zamonida Maxdumi A'zam Dahbediyning naqshbandiya tariqatida bo'la turib, jahriyani qabul qilishi, Movarounnahrda yassaviylik tariqatining qaytadan ijtimoiy hayotda jonlanganligidan dalolat beradi. Aytish kerakki, XV-XVI asrlardan boshlab, yassaviylik ta'limotining nazariy va amaliy tomonlarini rivojlantirgan mutasavvuf va piru-ustozlarning butun bir guruhi yetishib chiqdi. Jumladan, keyingi davrlarda yetishib chiqqan piru-mutasavvuflar, Husayn Xorazmiy, Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A'zam, Mavlono Lutfulloh Chustiy, Mashrab, Bedil kabilar naqshbandiya, yassaviya, kubraviya, qalandariya, tasavvuf maktablari vakillari edilar. Abu Hasan Muhammad Boqirning "Maqomoti Naqshbandiya", Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlari tasavvuf ta'limotlarining g'oyaviy, falsafiy mohiyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bergani fikrimizning dalili bo'la oladi.

Jumaldan, O'rta asrlarda yaratilgan ko'plab manbalarda Xoja Ahmad Yassaviy haeti va faoliyati, tariqati, keyingi davrdagi muridlari, izdoshlari, davomchilar haqidagi ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat va mashoyim ul-futuvvat" nomli asarida yassaviylik tariqati davomchilaridan o'nlab piru-murshidlar haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Qutbiddin Haydar, Hakim ota – Sulaymon Boqirg'oniy, Ismoil ota, Is'hoq ota, Sadr otalar haqida ma'lumot berib [2;153-154.], ul kishilarni Ahmad Yassaviy muridi va tariqatining yirik vakillaridan biri ekanlgini ta'kidlaydi.

Jahonda Xoja Ahmad Yassaviyning ijodiga qiziqish va uning ilmiy merosini tadqiq etish bilan xorijiy olimlaridan A.Arberi, G.Vamberi, K.Gani, I.Goldsiyer, R.Dozi, A.F.Kremer, F.Ko'prulizoda, N.Lings, A.Mes, Ye.Palmeri, I.Tabari, F.Toluk kabi tadqiqotchilar shug'ullanishgan. Olimlardan Devin DiUis yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlari o'rtasidagi munosabatlar genezisini qiyosiy tahlil qilgan bo'lsa[3;19-25], tadqiqotchi M.F.Ko'prulizoda Ahmad Yassaviyning hayoti, faoliyati, ijtimoiy, ma'rifiy-axloqiy qarashlari, uning izdoshlari

ta'siri ostida XIII asrdayoq Onado'lida diniy-ma'rifiy hayot rivojlanganligini qayd etgani muhim ahamiyatga ega.

MDH olimlaridan tasavvufiy ta'limotlar va yassaviylik tariqatini olimlardan V.V.Bartold, A.M.Bogoutdinov, Ye.A.Bertels, B.A.Gordlevskiy S.N.Grignyan, S.M.Demidov, K.K.Kazanskiy, A.Ye.Krimskiy, A.Kurbanmamedov, Sanan Mexti A.Muhammadxo'jayev, M.T.Stepanyans kabi olimlar Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti, Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'rni haqida ma'lumotlar berishgan. Xususan, sharqshunos-olimlardan Ye.A.Bertels, A.Ye.Krimskiy, Yu.G.Petrashlarning tadqiqotlarida tasavvuf tariqatlari o'rtasidagi tafovutni ajralish sabablarini ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasi[4], deb qaralib, yassaviya tariqatiga tanqidiy fikrlar bildirilgan bo'lsa, akademik B.A.Gordlevskiy tadqiqotlarida Yassaviyning ijodiy faoliyatiga ijobiy baho berilgan[5;363].

Markaziy Osiyolik olimlar tomonidan ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, qozog'istonlik olimlardan, A.P.Abuov, Yu.A.Yolgin, Z.Jandarbekov, D.Kenjetay, turkmanistonlik olimlar S.Agadjanov, G.Geldiyev, S.Demidov kabilarni keltirishimiz mumkin.

Yurtimiz olimlaridan H.Aliqulov, M.B.Baratov, V.Y.Zohidov, N.Komilov, I.M.Mominov, M.Mamatov, G.Navro'zova, J.O.Nematova, R.Nosirov, E.Rustamov, N.A.Usmonov, O.Usmonov, A.Fitrat, E.Yusupov, R.Shodiyev, M.M.Xayrullayev, M.Xajiyeva, N.Hasanov, I.Haqqul, Z.Is'hoqova, J.Xolmo'minovlarning tadqiqotlarida tasavvuf ta'limoti, Markaziy Osiyodagi tariqat yo'naliishlari, jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ma'naviy merosining turli jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan. Xususan, akademik M.Xayrullayev va professor R.Nosirovlar tasavvuf tariqatlari, shuningdek Ahmad Yassaviy tasavvufiy qarashlari ham, o'zbek tadqiqotchilari tomonidan tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan hali yetarli darajada tadqiq etilmagan, deb ko'rsatganlar[5;8]. Professor M.Xajiyeva tadqiqotlarida Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyatini atroflicha o'rganishga urinadi, ammo uning tadqiqotlarida yassaviya tariqatini asosan pedagogik nuqtayi nazaridan o'rganilgan[6;134].

Mustaqillik yillarida ko'plab olimlarning Xoja Ahmad Yassaviy va uning boshqa xalifalari to'g'risida e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlari mavjud. akademik B.Valioxojayev, I.Haqqul, A.Zohidiy, G.Navro'zova, R.Shodiyev va boshqa tadqiqotchilar XV-XVII asrlarda yashagan ko'plab mutasavvuflarning, Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvufga oid qarashlarini rivojlantirgani, yangicha falsafiy mazmun bergani haqida fikr yuritganlar. Jumladan, A.Bozorov bilan T.Qorayev "Devoni hazrat Xoja Ahmad Yassaviy" nomli kitoblarida Xoja Ahmad Yassaviyning xalifalaridan hisoblangan Mansur ota haqida ma'lumot keltiradilar: "Mansur ota Rahmatullo Xoja Ahmadni avvalgi xalifalaridur. Bu janob Bob Arslonning farzandi rishtalari edi. Ulumi umum, zohiru botin olim edilar. Avval holda padari buzrukvorlaridan tarbiya topgan edilar. Otalarining ishoratlari

bilan u ulug‘ zotning qazoyi bandaliklaridan so‘ngra hazrat Xoja Ahmad Rahmatullohning mulozimlariga bordilar. Xoja Ahmadning inoyatmand soylari darajasi oliyga yetib, ahli viloyatga (hammaslak) bo‘ldilar” [7;13-14], deb ta’kidlaydi. Xoja Ahmad Arslonbobga bo‘lgan hurmati evaziga uning o‘g‘li Mansurni tarbiyalab, yassaviya tariqatining murshid donishmandi darajasiga ko‘tardi. Yassaviya tariqatiga e’tiqod qo‘ygan, uning qoidalarini targ‘ib qilgan mashhur mutasavvuf Zangi otadir. “Bul zot Hakim otaning shogirdi bo‘lib, nafaqat butun Toshkent viloyati o‘rtasida, balki barcha Turkiston - islom dunyosida mashhur shaxs hisoblanadi. Uzun Hasan ota, Said ota, Sadir ota va Badir otalar barchasi Zangi otaning shogirdlaridir. Tadqiqotchi O.Usmonov Toshkent va Chimkent viloyatlarida Xoja Ahmad Yassaviyning xalifa va shogirdlari bo‘lmish Sayid ota, Suzuk ota, Zangi ota, Ibrohim ota kabi ko‘plab otalar yashab, xalqimizni xaq yo‘liga, poklik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, diyonat, imondorlik kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya qilganlar.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Xoja Ahmad Yassaviy butun hayoti davomida insonning baxtsaodati, ma’naviy yuksalishi va ruhiy poklanishi yo‘lida faol kurash olib borgan zot edi. U o‘zining «hikmat»lari orqali insondagi salbiy xislatlar — kibr, hasad, riyo, dunyoviy manfaatparastlik kabi illatlarni tanqid qilgan, bu kabi illatlar jamiyatda beqarorlik va ma’naviy tanazzulga olib kelishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, bunday salbiy holatlarni bartaraf etish uchun inson avvalo Alloh taolo zotini tanishi, uning irodasiga taslim bo‘lishi va o‘z hayotida odob-axloq me’yorlarini asos qilib olishi zarur.

Yassaviy ta’limotining markazida insoniylik, poklik, haqiqatparvarlik va kamtarlik turgan bo‘lib, bu g‘oyalari irfoniy-diniy va ma’naviy-axloqiy mazmunning mukammal uyg‘unligini namoyon qiladi. Shu jihatdan ham Yassaviy qarashlari tasavvuf dunyosida faqat diniy emas, balki keng ma’noda insoniy komillikka yetaklovchi mafkura sifatida yuksak baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев III.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: О‘zbekiston, 2021. – Б.263.
2. De Weese D. Yasavian Legends on the Islamization of Turkistan // Aspects of Altaic Civilization. III. Proceeding of the Thirtieth Meeting of the Permanent International Altaistic Conference. Indiana University, June 19-25, 1987.
3. Петраш Ю. Г. Тень средневековья. Алма-Ата: Казахстан, 1981. – 150 с.
4. Гордлевский В.А. Ходжа Ахмед Ясеви. // Избранные сочинения. Том 3. - Москва: Восточная литература, 1962. - С. 361-369.
5. Хайруллаев М.М. К Изучению истории вольнодумных идей в общественной мысли народов Средней Азии Тошкент: Фан, 1991. –С.3-10; Носиров Р. Ахмад

Яссавийнинг диний-ахлоқий қарашлари// Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Тошкент: Ўзбекистон, 1995. - Б.116.

6. Хажиева М. Хожа Аҳмад Яссавийнинг маънавий-маърифий қарашларининг тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: Muharrir, 2012. – 134 б.

7. Бозоров А, Қораев Т. Яссавий ихлоси// Шарқ юлдузи– Тошкент, 1991. – №1-сон. - Б. 13-146.

8. Ашрафхўжаев Ф., Ҳўжаев М., Жўраев З. Хожа Аҳмад Яссавий ва Яссавийлар тарихи. –Т.: «Илм-зиё-заковат», 2023. – 352 б.

9. Яссавий ва яссавийшунослик: натижа ва баҳслар // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/816>

10. Сафаров А. И., Ҳаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.

11. Tohirovich S. R., Adirasulovich K. S. Explanation Of Lust And Patience In "Hikmats" Of Khoja Ahmed Yasawi //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 9. – С. 229-233.